O‘ZBEK TILSHUNOSLIKDA EKVONIMLARNING TADQIQI XUSUSIDA

Karshibayeva Yulduz
GulDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligi muammolariga, xususan, til sathlari va ularning birliklari tizimiga xos ekvonim va ekvonimiya hodisalari tadqiqi muammolariga bag‘ishlangan. Ekvonim va ekvonimik, giponim va giponimik munosabatlar, ularning o‘zbek tili leksemalari tizimiga xos amaliga alohida e’tibor qaratilgan. Ekvonim va ekvonimiya hodisalarining o‘zbek tilshunosligida tadqiq etilishi, ekvonim va ekvonimiya hodisalari, ularning til sathidagi o‘rni masalalri tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ekvonim, ekvonimiya, sinonimiya, antonimiya, omonimiya, paradigma, leksika, leksema, giperonim, giponim va b.

O‘zbek tilshunosligida dastlab *ekvonim* terminini professor A.Berdialiyev o‘z asarlarida qo‘llagan va ilmiy jihatdan tadqiq qilgan. I.Ermatov o‘zining 2021-yilgi tadqiqotida bu masalani qayd etib, o‘zbek tilshunosligida “ekvonim” va “ekvonimiya” terminlari A.Berdialiyev tomonidan dastlab o‘rganilganini qayd etadi[1]. Bundan tashqari, ushbu darslikning 80–84-betlarida “Ekvonimlar” alohida mavzu sifatida berilgan. Unda, masalan, *qo‘chqor, sovliq, qo‘zi, chori* kabi birliklar *qo‘y* giperonimiga nisbatan ekvonim sifatida izohlanadi; *sigir, novvos, ho‘kiz, buqa, tana, g‘unojin, buzoq* esa *qoramol* bilan bog‘liq ekvonimlar sifatida keltirilgan. Demak, A.Berdialiyev o‘zbek tilshunosligida *ekvonim* tushunchasini dastlab qo‘llagan va tadqiq qilgan olim. I.Ermatov bu masalani keyinchalik kengaytirgan, tizimlashtirgan va ekvonimiya hodisasini alohida ilmiy yo‘nalish sifatida chuqur tadqiq qilgan. Uning 2020-yildagi maqolasi aynan o‘zbek tilshunoslik terminologiyasidagi ekvonimik munosabatlarga bag‘ishlangan[2]. O‘zbek tilshunosligida ekvonim terminini dastlab professor A.Berdialiyev qo‘llagan. I.Ermatov esa ekvonim va ekvonimiya nazariyasini rivojlantirib, bu hodisani chuqur va tizimli tadqiq qilgan. A.Berdialiyev va I.Ermatov qarashlari o‘rtasidagi farqni bir-biridan ajratib olish muhimdir.

A.Berdialiyev ekvonimlarni *leksik-semantik hodisa* sifatida o‘zbek tilshunosligiga olib kirgan tadqiqotchilardan biridir. 2021-yilda A.Berdialiyev va I.Ermatov hammuallifligida nashr etilgan *“Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya”* darsligida “Ekvonimlar” alohida mavzu sifatida berilgan. Bu yondashuvda ekvonimlar ko‘pincha giperonimga nisbatan bir xil darajada turuvchi birliklar sifatida ko‘rsatiladi. Masalan,

Qo‘y → qo‘chqor – sovliq – qo‘zi – chori.

Bu yerda *qo‘y* umumiy tushuncha, qolgan birliklar esa shu tushuncha doirasidagi turli nomlar. Xuddi shuningdek

Qoramol → sigir – novvos – ho‘kiz – buqa – tana – g‘unojin – buzoq. Bu birliklar o‘zaro teng munosabatda bo‘ladi.

---


[1]Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetlari bakalavriat talabalari uchun darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, – 2021. – 204 b.

[2]Эрматов И. Hypero-hyponymic taxonomy in linguistic terminology // Zamonaviy fan, ta’lim va tarbiyaning dolzarb muammolari (Elektron ilmiy to‘plam). – Урганч, 2020.– Б. 84-91; шу муаллиф, Терминологияда эквоним ва эквонимия муносабатлари // ЎзА Илм-фан бўлими (электрон журнал). 2020 йил сентябрь ойи сони. – Б. 64-71; шу муаллиф, Эквонимлар ва уларнинг терминологик тизимга муносабати // Guliston davlat universiteti axborotnomasi. №2 (89). – Guliston, 2022. – Б. 68-72.


© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

I.Ermatov ekvonim masalasini ancha kengaytirdi va nazariy jihatdan tizimlashtirdi. U ekvonimni faqat ayrim so‘zlar guruhining xususiyati sifatida emas, balki *leksik-semantik tizimdagi alohida munosabat* sifatida o‘rgandi. Uning tadqiqotlarida *giperonimiya, giponimiya, ekvonimiya, partonimiya* kabi munosabatlar o‘zaro qiyoslanadi. Ayniqsa, I.Ermatovning 2022-yildagi “Terminologik tizimda gipero-giponimk va ekvonimik munosabatlar” monografiyasi ekvonimiyani terminologik tizim doirasida batafsil tadqiq qilgan.

Ekvonim hodisasiga professor A.Berdialiyev yondashuvi quydagicha. Ekvonim umumiy tushuncha ostidagi teng munosabatli (tengdosh) birlik.



Ekvonim hodisasiga professor I.Ermatovning yondashuvida u bu hodisani yanada kengroq lisoniy munosabat sifatida ko‘radi:



Ya’ni I.Ermatov uchun asosiy masala faqat “qaysi so‘zlar ekvonim?” degan savol emas, balki “Ular til tizimida qanday munosabatga kirishadi?” degan muammodir. I.Ermatovning xizmatlari shundaki, u ekvonimiyani giponimiya bilan munosabatda ko‘rsatadi[3]. Masalan: Hayvon → it – mushuk – ot. Bu misolda:

hayvon → it – giponimik munosabat;
hayvon → mushuk – giponimik munosabat;
hayvon → ot – giponimik munosabat;
it ↔ mushuk ↔ ot – ekvonimik munosabat.

Demak, bitta birlik ikki xil munosabatda qatnashishi mumkin:

It – “hayvon”ga nisbatan giponim, *it* – “mushuk” va “ot”ga nisbatan ekvonim. I.Ermatov tadqiqotlarida aynan giponimiya va ekvonimiyaning kesishuvi alohida o‘rganilgan.


I.Ermatov ilmiy tadqiqot ishida *ekvonimiya sinonimiya, antonimiya va konversivlik* kabi chuqur o‘rganilgan munosabatlardan farqli ravishda kam o‘rganilganligini qayd etadi. Shu sababli tilshunoslik terminlari tizimi orqali ekvonimiyaning semantik va struktur xususiyatlarini ochishga harakat qiladi. Ya’ni ish faqat “ekvonim nima?” degan savol bilan cheklanmaydi, balki “Ekvonimik munosabat real leksik tizimda qanday tashkil topadi?” degan masalani o‘rganadi.

[3]Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар. Монография. – Тошкент: TAMADDUN, 2022. – 251 б.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

I.Ermatovning "Ekvonimiya haqida"gi tadqiqotlari ayniqsa terminologiya uchun muhim manba hisoblanadi[4].

Masalan:



Fonetika, leksikologiya, morfologiya tilshunoslikning turli bo'limlari, ular umumiy tizimda teng munosabatli (tengdosh) maqomda. Shuning uchun ular o'rtasida ekvonimik munosabat mavjud. I.Ermatovning maqolalarida tilshunoslik terminlari ekvonimik munosabatlarni aniqlash uchun asosiy material sifatida qo'llangan[5].

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa sifatida aytish mumkin-ki, A.Berdialiyev va I.Ermatovning "Ekvonim va ekvonimiya haqida"gi qarashlarini qarama-qarshi qo'yish to'g'ri emas. Aksincha, A.Berdialiyev ekvonimlarni o'zbek tilshunosligida leksik-semantik hodisa sifatida yoritgan, I.Ermatov esa bu hodisani kengaytirgan, tizimlashtirgan va ekvonimiyani alohuda semantik munosabat sifatida chuqur tadqiq qilgan.

Ekvonim va ekvonimiya terminlari haqida fikr yuritganda M.V.Nikitinning "Основы лингвистической теории значения" asarida sinonimiya va antonimiya bilan bir qatordagi guruh hodisasi sifatida tilga olingani ham qayd etiladi. Shu sababli "O'zbek tilshunosligida ekvonim va ekvonimiya terminlarini birinchi bo'lib falonchi kiritgan" degan da'voni qat'iy aytishdan ko'ra, "A.Berdialiyev tomonidan turkiy tilshunoslik va o'zbek tilshunosligida dastlab o'rganilgan, I.Ermatov tomonidan keng va tizimli tadqiq etilgan" deyish ilmiy jihatdan to'g'ri bo'ladi. Xulosa shuki, o'zbek tilshunosligida ekvonim hodisasi A.Berdialiyev tadqiqotlarida yoritilgan, I.Ermatov esa ekvonimiya hodisasini chuqurlashtirib, uni giponimiya, partonimiya va boshqa semantik munosabatlar bilan bog'liq holda tizimli ravishda tadqiq qilgan.

M.V.Nikitinning ekvonim haqidagi qarashlari "Основы лингвистической теории значения" (M., 1988) asarida qayd etilgan. Uning bu asarida ekvonimiya lug'atning semantik mikrotizimlaridan biri sifatida sinonimlar va oppozitivlar (antonimlar, konversivlar) bilan bir qatorda ko'rib chiqiladi[6]. Bu haqda mazkur asarning 93–94-betlarida yoritilgan. Xo'sh, M.V.Nikitin ekvonimni qanday tushuntiradi? *Ekvonimlar bitta giperonimga tegishli bo'lgan, umumlashish darajasi bir xil bo'lgan giponimlardir,* degan g'oyani ilgari suradi. Ya'ni bir nechta so'z bitta *umumiy tushuncha* ostida birlashadi va ularning

---


[4] Ermatov I. O'zbek tilida ekvonimiya. Monografiya. – Toshkent: "Bookmany print", 2025. – 70 b.

[5]Эрматов И. Hypero-hyponymic taxonomy in linguistic terminology // Zamonaviy fan, ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari (Elektron ilmiy to'plam). – Урганч, 2020.– Б. 84-91; шу муаллиф, Терминологияда эквоним ва эквонимия муносабатлари // ЎзА Илм-фан бўлими (электрон журнал). 2020 йил сентябрь ойи сони. – Б. 64-71; шу муаллиф, Эквонимлар ва уларнинг терминологик тизимга муносабати // Guliston davlat universiteti axborotnomasi. №2 (89). – Guliston, 2022. – Б. 68-72.

[6] Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. Учебное пособие. – М.: Высшая школа, 1988. – 168 с.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

o‘zaro munosabati ekvonimik munosabat hisoblanadi. Bu ta’rif keyingi tadqiqotlarda Nikitinning qarashi sifatida asos vazifasini bajaradi. Masalan, “ota – ona”. Ota – ona → ota-ona / oila (umumiy tushuncha). M.V.Nikitinning qarashini tushuntirsak:



Bu paradimada:

ota-ona – giperonim;

ota – giperonimga nisbatan giponim;

ona – giperonimga nisbatan giponim;

ota ↔ ona – o‘zaro ekvonim.


M.V.Nikitin fikrining muhimligi shundaki, “ota” va “ona” bir-biriga nisbatan ekvonim, “ota-ona / oila”ga nisbatan esa giponim bo‘ladi.

Demak, ekvonimning ikki tomonlama munosabati bor. Buni quyidagicha izohlash mumkin: umumiy tushuncha bilan munosabat: Ota → ota-ona giponimik munosabat. Tengdosh birlik bilan munosabat: ota ↔ ona ekvonimik munosabat.

Shuning uchun ekvonim alohida holda emas, giperonim-giponim tizimi ichida tushunish lozim.

M.V.Nikitin qrashlarida umumiy semantik belgi muhim hisoblanadi. Ekvonimlarning ma’nolari mutlaqo bir xil emas. Ammo ularni birlashtirib turadigan umumiy semantik komponent mavjud. Masalan, ota – ona. Ikkalasida ham umumiy “ota-ona, qarindoshlik” semantik belgisi bor. Lekin *ota* – erkak; *ona* – ayol. Shu bilan birga ular bir xil umumlashish darajasida turadi. M.V.Nikitin ekvonimlarning ma’nolaridagi umumiy semantik bog‘lanish eng yaqin giperonimning mazmuniga teng bo‘lgan umumiy semani tashkil qilishini ta’kidlaydi.

Bu nazariyani o‘zbek tilidagi misol yordamida yanada yaqqol ko‘rish mumkin:



Bu misolda:

qo‘y – umumiy tushuncha;

qo‘chqor, sovliq, qo‘zi – shu umumiy tushunchaning xususiy ko‘rinishlaridir;

ular bir xil umumlashish darajasida bo‘lgani uchun o‘zaro ekvonimdir. O‘zbek tilshunosligidagi keyingi tadqiqotlarda ham aynan shu turdagi misollar ekvonimiyani tushuntirishda qo‘llanganligini kuzatamiz.

M.V.Nikitin lug‘atning semantik tuzilishini bir nechta munosabatlar asosida ko‘radi: giperonimiya-giponimiya → partonimiya → ekvonimiya → sinonimiya → oppozitivlik (antonimiya, konversivlik).

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ya'ni ekvonimiya *lug'atning semantik mikrotizimlaridan biri* sifatida qaraladi. Bu uning nazariyasida ekvonimni shunchaki "bir nechta teng so'z" emas, balki *muayyan semantik tizimning tarkibiy qismi* sifatida tushunishga imkon beradi.

M.V.Nikitin va I.Ermatov qarashlarining bog'liqligi shundaki, bu yerda oldingi tahlillar bilan bog'liq muhim nuqta bor. M.V.Nikitin qarashlarida ekvonimlar – bir umumiy giperonimga ega, bir xil umumlashtirish darajasidagi giponimlar. I.Ermatov esa shu nazariy asosni o'zbek tilshunosligi va terminologiyasiga tatbiq etib, ekvonimiya hodisasini kengroq va tizimli ravishda tadqiq qiladi.

O'zbek tilshunosligiga oid manbalarda ham ekvonim va ekvonimiya terminlari M.V.Nikitinning ekvonim haqidagi qarashlari "Основы лингвистической теории значения" (M., 1988) asarida sinonimiya va antonimiyaga yondosh hodisa sifatida ko'rilgani, keyinchalik A.Berdialiyev tomonidan o'zbek tilshunosligida o'rganilgani qayd etiladi[7].

Ekvonim hodisaning qisqa ilmiy formulasini shunday ko'rsatish mumkin:

Giperonim → umumiy tushuncha

Giponimlar → shu tushunchaning xususiy birliklari

Ekvonimlar → bir giperonimga tegishli, bir xil umumlashish darajasidagi giponimlarning o'zaro munosabatidir. Masalan:

Ota-ona / oila → ota, ona

Ota va ona – giperonimga nisbatan giponim, bir-biriga nisbatan esa ekvonim.

Shu jihatdan M.V.Nikitinning ekvonim haqidagi qarashi keyingi o'zbek tadqiqotchilari, xususan, A.Berdialiyev va I.Ermatov tadqiqotlari uchun muhim nazariy asoslardan biri bo'lgan, deyish mumkin.

Turkiy tilshunoslikda ekvonimiya hodiasasiga bag'ishlangan yaxlit ishlar bo'lganmi? Yo'q, bo'lmagan. Professor A.Berdialiyev rahbarligida himoya qilingan Z.U.Abduvaliyevaning "Гипонимо-эквонимические отношения в системе зоонимов русского и узбекского языков" nomli dissertatsiyasidan boshqa ish amalga oshirilmagan[8]. Lekin muhim jihat shundaki, bu yo'nalish turkiyshunoslikda hali o'rganilmagan.

Biz tahlil etayotgan manbalar asosida asosiy ishlarni quyidagicha ajratish mumkin.

Professor A.Berdialiyev rahbarligida himoya qilingan Z.U.Abduvaliyevaning "Гипонимо-эквонимические отношения в системе зоонимов русского и узбекского языков" nomli dissertatsiyasi ham ekvonimiyaga bag'ishlangan. Tadqiqotning o'zida muallif bu mavzu o'zbek tilshunosligida va umuman turkiyshunoslikda ilk bor zoonimlar asosida maxsus tadqiq qilinayotganini ta'kidlaydi. Tadqiqot obyektini uy hayvonlari va uy parrandalari nomlari tashkil etgan.

Dissertatsiyada quyidagi masalalar ko'rilgan: ekvonimiya tushunchasi, giponimiya-ekvonimiya munosabati, rus va o'zbek tillaridagi zoonimlar, uy hayvonlari nomlari, hayvonlarning jinsi, yoshi va boshqa belgilarini bildiruvchi nomlar, umumiy giperonim va unga teng darajadagi giponimlarning munosabati.

---

[7]Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар (тилшунослик терминлари мисолида): Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 67 б; Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар. Монография. – Тошкент: TAMADDUN, 2022. – 251 б; Ermatov I. Terminologiyada leksik-semantik hodisalar. Monografiya. – Toshkent: "BOOK TRADE 2022", 2023. – 120 b; Ermatov I. O'zbek tilida ekvonimiya. Monografiya. – Toshkent: "Bookmany print", 2025. – 70 b.

[8] Абдуалиева З.У. Гипонимо-эквонимические отношения в системе зоонимов русского и узбекского языков. Монография. – Хужанд, 2015. – 156 с.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ekvonim va ekvonimiya hodisalarini turkiyshunoslikda o‘rganilishi bo‘yicha tahlil qilsak turkiy tillar bo‘yicha umumiy holat quyidagicha, bizdagi manbalar asosida shunday xulosa qilish mumkin:

Yo‘nalish	**Holati**
O‘zbek tili	Eng ko‘p tadqiq qilingan
O‘zbek-rus qiyosiy tadqiqi	Maxsus dissertatsiya mavjud
Turkiy tillar qiyosi	Deyarli o‘rganilmagan
Zoonimlar asosidagi ekvonimiya (o‘zbek-rus qiyosiy)	Maxsus tadqiqot mavjud
Terminologiyadagi ekvonimiya (o‘zbek tilida)	Faol tadqiq qilinmoqda
Qarindoshlik terminlaridagi ekvonimiya (o‘zbek tilidagi)	Qiyosiy tadqiqotlar mavjud

Turkiy tillar doirasida ekvonimiya masalasi deyarli tadqiq etilmagan, ammo o‘zbek tilshunosligida o‘zbek tili materiallari asosida, ayniqsa zoonimlar va terminologik tizim asosida, maxsus tadqiqotlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуалиева З.У. Гипонимо-эквонимические отношения в системе зоонимов русского и узбекского языков. Монография. – Хужанд, 2015. – 156 с.
2. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetlari bakalavriat talabalari uchun darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, – 2021. – 204 b.
3. Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. Учебное пособие. – М.: Высшая школа, 1988. – 168 с.
4. Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар (тилшунослик терминлари мисолида): Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 67 б.
5. Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар. Монография. – Тошкент: TAMADDUN, 2022. – 251 б.
6. Ermatov I. O‘zbek tilida ekvonimiya. Monografiya. – Toshkent: “Bookmany print”, 2025. – 70 b.
7. Ermatov I. Terminologiyada leksik-semantik hodisalar. Monografiya. – Toshkent: “BOOK TRADE 2022”, 2023. – 120 b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.